

"O‘TMISHDAN ERTAKLAR" ASARIDA IJTIMOIIY MUHIT, TARIXIY DAVR VA TURLI TAQDIRLARINING BOLA NIGOHIDA AKSLANISHI.

JDPU talabasi

Isroilova Gavhar Qahramon qizi

Annotatsiya: Abdulla Qahhorning "O‘tmishdan ertaklar" asarida o‘zbek xalqining og‘ir ijtimoiy-maishiy hayoti, tarixiy davr muammolari va turli inson taqdirlari bolakay qahramon nigohi orqali tasvirlanadi. Asarda eski tuzum zamonidagi zo‘ravonlik, adolatsizlik, jaholat va nodonlik holatlari bola qalbining sodda, ammo chuqur sezgirliigi orqali yoritiladi. Muallif kichik voqealar, oddiy suhbatlar orqali yirik ijtimoiy haqiqatlarni ochib beradi. Bola nigohi orqali berilgan tasvirlar o‘quvchini o‘sha davr muhitiga olib kiradi, insoniylik, mehr-shafqat, adolat kabi tushunchalarni qadrlashga undaydi. Asar nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yosh o‘quvchiga o‘z xalqining tarixiy o‘tmishini anglash va unga tanqidiy qarash imkonini beradi.

Abstract : Abdulla Qahhor's work "Tales from the Past" depicts the difficult social and domestic life of the Uzbek people, the problems of the historical period, and various human destinies through the eyes of a child hero. The work illuminates the violence, injustice, ignorance, and ignorant relations of the old regime through the simple but deep childhood of his soul. The author reveals social truths through small incidents and simple conversations. The images presented through the eyes of a child encourage the reader to appreciate such features as humanity, compassion, and justice, which bring the reader into the atmosphere of that time. The work has a national literary, but also educational stress, creating in the young reader an understanding of the historical past of his people and a critical view of it.

Абстрактный: В произведении Абдуллы Каххора «Рассказы из прошлого» глазами героя-ребенка показаны сложная общественная и бытовая жизнь узбекского народа, проблемы исторического периода, различные человеческие

судьбы. Произведение освещает насилие, несправедливость, невежество и глупость старого режима через простое, но глубокое детство души. Автор раскрывает социальные истины через небольшие происшествия и простые разговоры. Образы, представленные глазами ребенка, погружают читателя в атмосферу той эпохи, побуждают его ценить такие качества, как гуманность, сострадание и справедливость. Произведение имеет не только национально-литературное, но и воспитательное значение, формируя у молодого читателя понимание исторического прошлого своего народа и критический взгляд на него.

XX asr o'zbek adabiyotida katta salmoqqa ega asarlari bilan mashhur Abdulla Qahhor ijodi keng ko'lamda o'rganilmoqda . Xususan, matyoqub Qo'shjonov ,ozod Sharafiddinov va o'z davrining mashhur tanqidchi hamda olimlari uning ijodi bo'yicha izlanishlar amalga oshirishgan.Uning asarlari bitmas tunganmas xazina manbai hisoblanib , uning qissanavislik mahorati beqiyosdir.“Muhabbat “, “Sinchalak”,”O'tmishdan ertaklar “ qissalarida davr ,ijtimoiy muhit tasvirlari qalin bo'yoqlarda bayon etiladi. Uning O'tmishdan ertaklar “qissasiga e'tibor qaratsak bu asar avtobiografik asar hisoblanadi.Bu asar daslab “Otmishdan lavhalar” deb nomlanadi.Ammo, ko'pchilik bayon etilgan taqdirlarni haqiqatdan yiroq deyishadi,shundan keyin ijodkor agar bular sizga ertakdek tuyulsa, ertak bo'laqolsin deya qissa nomini “O'tmishdan ertaklar” deb nomlaydi.Asarda jarayonlar shunday bayon etilganki, hech bir kitobxon undan chetlasha olmaydi .

“O'tmishdan ertaklar” asarida bosh qahramon adibning o'zi Abdulla. U atrofida sodir bo'layotgan har qanday hodisalarga hech qanday yolg'on aralashtirmasdan boricha bayon etadi. Asarni o'qish jarayonida bola qalbidagi iztiroblarni oson anglay olasiz.Negaki,ijodkor umumiy inson qalbiga oson singadigan tuyg'ular orqali shu davr fojiasi va ijtimoiy muhitni akslantiradi.

Dastavval, uning “kelgindi” so'zining qanchalar yomon so'z ekanini bilgan jarayoniga e'tibor qaratsak.”...Nargi tomonning boshlig'i...menga boshdan oyoq razm soldi-yu,birdan: “-kelgindi!”-deb urgani qo'l ko'tardi...Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla , uzun malla to'nli novcha bir chol :”Qo'yinglar ,bolalar, tegmanglar ,

kelgindi bo'lsa o'zi bo'libdimi „xudo qilgan”,- dedi... “kelgindi, kelgindi it “, degan gapni Olim buvadan eshitganida buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib , tovonimdan chiqib ketdi” deya yozadi o'z qissasida. Bunda bola Olim buva uyidan haydalganida aytilgan bu so'zning ma'nosini to'la anglab yetmagan , shunchaki otasining xatosiga aytilgan so'zlar deya tushungan bola bugun bu atama qanchalar inson qadr- qimmatini uning qalbini yer bilan bitta qiluvchi ekani, bundan ham yomoni bu abadul- abad bo'lgan tamg'a ekanini bilgan edi. Bu jarayonda Abdulla bolaligidagi sarsongarchiloklarning qanday kechganini yana bir bor eslaydi. Davr shunchalar og'ir-ki, bunda yashash uchun doim sargardonlikda umr kechirilmasa non topib yeyish mushkul edi. Shuningdek, ijtimoiy qatlam vakillari esa bir biriga umuman yordam bermas , faqat o'z hayorlari uchun kurashadilar bu hatto farzandalar ruhiga ham singdirilgan . E'tobor qilsak asar davomida ular ota uyiga borib ham bu tamg'adan mahrum bo'lmadi . Qo'qonda ham uni “kelgidi” deb bildilar.

Davr aslida chirkin , ijtimoiy hayot ildizigacha chirib bitgan. Yangilanmoqchi bo'lgan qatlam esa o'sha chiriklar tomonidan nobud etiladi. Buning misoli amakisi Abdurahmon, amakivachchasi G'affor, buvisi va Savrinisa hayotida isbotlasak bo'ladi. Aslida , insonlar asl insonligini yo'qotgan edilar, dalili Abdurahmon va buvisi timsolida. Abdurahmonning asl hayoti qorong'ulikka yuz tutgan, bu qora hayotga oz qizi Savrinisani ham boshlamoqda . Bunday hayotdan bosh tortadi ammo qalb to'rida yorug'likka , yuksaklikka bo'lgan intilishni kuch bilan fojiali tarzda amalga oshirgan Abdurahmon “to'y ko'rsin “ deb tirishayotgan ayoliga “azani “ko'rsatadi. Bunga aynan o'zi guvoh bo'lgan Abdulla johillikka qurbon bo'lgan “hur qiz”ni qissasida ifodalaydi. Balki, mana shu o'z qizining o'limiga sabachi bo'lgan ota timsolini ertak deb oylagandirlar. Ammo davrimiz shunday zamonlar zalvorini ko'rdiki, bunda yashaganlar nafaqat jaohil balki manqurt va maxluqlarga ham guvoh bo'ldilar.

Zamon zalvorida toblangan xalqimiz orasida manqurtlar bilan bir qatorda sodda xaqning tasviri ham bayon etiladi. “Babar” hikoyasida o'z tanlovi yo'q , faqat buyruqlar iskanjasida yashagan obraz butun mehnatkash xalqa haqida. Bunday toifa vakili

hisoblanganlar, nafaqat Qahhor ijidida balki, butun XXasarda ijod qilgan barcha adiblar asarlaridan topa olamiz.

Aslini olganda “kelgindi” nomi Qahhorga to’g’ri berilgan desak ham yolg’on emas . Shuning uchun ham u “indamas” laqabiga ega bo’ldi uning barcha qarashlari , o’ylari so’z bilan bayon etilgan taqdirda ham kuchli ziddiyatlarga sabab bo’lardi. U shu ijtimoiy hayot vakillari uchun begona. Uning asarlari shunchlar kata ma’no qamroviga ega-ki, bu so’zlarni qancha ko’p tahlil etsak uning yana bir ko’rinishi tasavvurimizda gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qahhor, A. (2008). Asarlar (6-jild). Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
3. G’ulomov, A. (2005). O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Sharifho‘jayev, S. (2000). Bola va adabiyot. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Mamarasulov, Q. (2010). Adabiy tahlil asoslari. Toshkent: Fan
6. Sobirov, A. (2015). “Abdulla Qahhor hikoyalarining g’oyaviy-badiiy tahlili”. Filologiya masalalari jurnali, №2.